

O'ZBEK TARIXIY FILMLARIDA KINOOPERATORLIK SAN'ATINING RUVOJLANISH BOSQICHLARI

Sulaymonov Elboy Axtamovich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Ovoz rejissorligi va operatorlik mahorati"
kafedrası 1-kurs magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14306920>

Annotatsiya. O'zbek kino san'atining paydo bo'lishining dastlabki davrlaridan to hozirgi vaqtgacha bo'lgan davri yoritilgan bo'lib ular orasidan o'zbek tarixiy kino san'atining ajralib chiqishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. O'tgan asrda yaratilgan mashhur tarixiy filmlarning mustaqillik yillarida yaratilgan filmlardan farqli jihatlari borasida fikrlar yuritiladi. So'ngi yillarda yaratilayotgan tarixiy filmlarning boshqa filmlardan farqli tomonlari aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: kino san'ati, kinooperator, tarixiy film, kinostudiya, maxsus effektlar, dekoratsiya, tabiiy yorug'lik, syujet, raqamli texnologiya, animatsiyalar.

STAGES OF DEVELOPMENT OF THE ART OF CINEMATOGRAPHY IN UZBEKISTAN HISTORICAL FILMS

Abstract. The period of the emergence of Uzbek cinema from the early days to the present is covered, and information about the emergence of Uzbek historical cinema is provided. The differences between famous historical films created in the last century and films created during the years of independence are discussed. The differences between historical films created in recent years and other films are discussed.

Keywords: cinema, cinematographer, historical film, film studio, special effects, scenery, natural light, plot, digital technology, animations.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВА КИНЕМАТОГРАФИИ В ИСТОРИЧЕСКИХ ФИЛЬМАХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Освещен период становления узбекского кино с первых дней до наших дней, а также предоставлены сведения о становлении узбекского исторического кино. Обсуждаются различия между известными историческими фильмами, созданными в прошлом веке, и фильмами, созданными в годы независимости. Обсуждаются различия между историческими фильмами, созданными в последние годы, и другими фильмами.

Ключевые слова: кино, оператор, исторический фильм, киностудия, спецэффекты, декорации, естественный свет, сюжет, цифровые технологии, анимация.

Bugungi kunda o'zbek kino san'ati milliy madaniyatimizning ajralmas bir qismi bo'lib, uning ruvojlantirishida kinooperatorlik san'ati alohida o'rin kasb etadi. Jumladan, tarixiy filmlarda kinooperatorlarning mahorati o'sha davr voqealari va muhitini haqqoniy aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kino sohasida amalga oshirilgan islohotlar va yangi texnologiyalarning joriy qilinishi kinooperatorlik san'atining rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Kino san'ati – kinematografiyaning texnik vositalar asosida shakllangan badiiy ijod turi bo'lib unda ekran san'atining muhim tarkibiy qismi va real borliqni aynan yoki badiiy–hujjatli obrazlar, multiplikatsiya vositalari yordamida suratga olish hamda kinofilmlarning omma orasida

keng tarqalishi uchun xizmat qiladigan televideniye, videokasseta va videodisklarni ham o'z ichiga oladi.

Kinooperator – kinematografiya kasbi hisoblanadi. Kinooperator kino kamerada filmni tasvirga oluvchi va tasviriy yechimiga javob beruvchi shaxs. Bundan tashqari filmni tasviriy yechimini yaratishda kinooperatoridan tashqari film rejissyori va rassom ham birgalikda javobgar hisoblanadi.

O'zbek kinooperatorlik san'ati o'zining qariyb bir asrlik tarixiga ega. Yurtimizning tarixiy voqealari va ijtimoiy hayoti haqidagi eng muhim ma'lumotlarni kinotasmalarga muhrlagan birinchi kinooperator Xudoybergan Devonovdir. U Moskva va Peterburgdan teleskop, grammafond, fotovakua kino uskunalar olib kelib Xorazimda fotolaboratoriya ochdi. X.Devonov ijodiy faoliyati rus kinosan'atkorlari faoliyati bilan bir davrda boshlagan. U suratga olgan "O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari", "Turkiston ko'rinishlari", "Xiva va xivaliklar" kabi qisqa metrajli filmlardir. Lekin bu filmlar hujjatli xarakterga ega edi. 1925-yili Sharq yulduzi kinostudiyasi (hozirgi kunda nomi "O'zbekfilm") ochildi. Kino ishlab chiqarishning yangi davri boshlandi.

O'tgan asrda o'zbek kinosining katta yutuqlari sifatida quydagilarni aytishimiz mumkin "Tohir va Zuhra" (1945-yil), "Nasriddinning sarguzashtlari" (1947-yil, rejissyor N.G'aniev), "Alisher Navoiy" (1948-yil, rejissyor K.Yormatov) kabi filmlar suratga olingan. Bu filmlarda uzoq o'tmishning hayoti va madaniyati hamda jamiyatdagi ichki jarayonlar tasvirlangan. Bulardan tashqari "Ibn Sino" (1957-yil, rejissyor K.Yormatov), "Qutlug' qon" (1956-yil, rejissyor L.Fayziev), "Furqat" (1959-yil, rejissyor Y.Agzamov) filmlarida xalqimizning o'tmishidagi hayoti tasvirlangan. Bu davrning ko'zga ko'ringan ijodkorlari sifatida quydagilarni keltirishimiz mumkin K.Yormatov, Z.Sobitov, Y.Agzamov, M.Krasnyanskiy, N.Ryadov, V.Sinichenko, V.Yeremyan va yosh ijodkorlardan Sh.Abbasov, A.Xachaturov, A.Hamraev, D.Salimov va boshqalarni keltirishimiz mumkin. O'tgan asrning 70-yillariga kelib xorijiy kinostudiyalar bilan hamkorlikda bir nechta tarixiy mavzudagi filmlar suratga olindi. Bolgariya bilan urush yillariga bag'ishlangan filmlar "Ikki askar haqida hikoya" (1977-yil, rejissyor Z.Sobitov), Hindiston bilan "Ali bobo va qirq qaroqchi" (1980-yil, rejissyor L.Fayziev va U.Mehra) filmlari suratga olindi.

Mustaqillik davriga kelib tarixiy filmlar yaratish yangi pallaga ko'tarildi va bu davrda suratga olingan filmlar "Kulol va Xurmacha" (1991-yil, rejissyor G.Bazarov), "Marg'iyona" (1997-yil, rejissyor X.Fayziev), "Buyuk Amir Temur" (1998-yil, rejissyor I.Ergashev, B.Sodiqov), "O'tgan kunlar" (1998-yil, rejissyor M.Abzalov), "Otamdan qolgan dalalar" (1998-yil, rejissyor Sh.Abbosov), "Voiz" (1998-yil, rejissyor Yu.Roziqov), "Alpomish" (2000-yil, rejissyor P.Fayziev), "O'rtoq Boykenjayev" (2002-yil, rejissyor Yu.Roziqov), "Mesh polvon" (2002-yil, rejissyor M.Abzalov), "Qor qo'ynida lola" (2003-yil, rejissyor A.Shaxobiddinov), "Yodgor" (2003-yil, rejissyor X.Nasimov), "Afandi va Azroil" (2004-yil, rejissyor X.Nasimov), "Vatan" (2006-yil, rejissyor Z.Musoqov), "O'tov" (2007-yil, rejissyor A.Shahobiddinov), "Shantaj mamlakatdagi mo'jizalar" (2008-yil, J.Is'hoqov), "Qo'rg'oshin" (2014-yil), "Berlin-Oqqo'rg'on" (2018-yil, rejissyor Z.Musoqov) kabilarni aytishimiz mumkin.

Bu tarixiy filmlarni o'tgan asrdagi suratga olingan filmlardan quydagi jihatlari bilan farq qiladi. XX asrda o'zbek kinosi asosan Sovet Ittifoqi mafkurasi ta'sirida rivojlangan. Bu davrda suratga olingan filmlar ko'pincha Sovet sotsialistik g'oyalarini targ'ib qilishga qaratilgan edi.

Tarixiy mavzularga oid filmlarda milliy o'tmish asosan sinfiy kurash va xalqning ozodlik uchun kurash motivlari orqali tasvirlangan. Masalan, "Alisher Navoiy" (1947yil) filmi buyuk shoir hayotini yoritishda uning ijodiy va insoniy qirralarini sotsialistik g'oyalarga moslashtirishga harakat qilingan. Filmlarda sodda maxsus effektlar va oddiy kino uskunalaridan foydalanilgan.

Masalan, sahnalarni bezashda qo'lda yasalgan dekoratsiyalar va tabiiy yorug'lik asosiy rol o'ynagan. Rang-barang tasvirlar kamdan-kam uchrab, filmlar asosan qora-oq formatda edi.

Filmlarida syujet chiziqlari mafkuraviy jihatdan bir yoqlama bo'lib, ijobiy va salbiy qahramonlar orasida keskin chegaralar mavjud edi. Tarixiy shaxslar ko'pincha idealizatsiya qilingan yoki mafkuraga mos ravishda tasvirlangan. Shu sababli bu filmlarda dramatik chuqurlik va murakkab psixologik obrazlar kam uchraydi. Milliy tarixga oid filmlar, asosan, Sovet ittifoqining umumiy madaniyati va qadriyatlariga moslashtirilgan. Bu filmlarda o'zbek xalqining milliy qadriyatlari qisman aks etgan, lekin ular ko'pincha sotsialistik g'oyalar soyasida qolgan.

Mustaqillik davrida suratga olingan tarixiy filmlarda esa O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, tarixiy filmlar milliy g'urur va ajdodlar merosini targ'ib qilishga qaratila boshlandi. Bu filmlarda tarixiy shaxslar va voqealar Sovet mafkuraviy doirasidan chiqib, milliy manfaatlarga mos ravishda qayta talqin qilindi. Raqamli texnologiyalar va zamonaviy maxsus effektlardan foydalanish mustaqillik davri filmlarining asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu davrda yaratilgan filmlarda realistik jang sahnalari, 3D animatsiyalar va yuqori sifatli tasvir texnikasi qo'llanilgan. Mustaqillik davrida yaratilgan filmlarda qahramonlarning insoniy qirralariga ko'proq e'tibor qaratiladi. Syujetlar murakkabroq bo'lib, tarixiy voqealar dramatik jihatdan boy va realistik talqin qilinadi. Bu filmlar milliy qadriyatlarni tiklash va mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu filmlarda o'zbek xalqining boy madaniy merosi, tarixiy qahramonlari va mustaqillik uchun kurash motivlari asosiy mavzulardan biri sifatida ko'tarilgan.

XX asr va mustaqillik davri o'zbek tarixiy filmlari o'rtasidagi asosiy farqlar siyosiy-madaniy kontekst, texnologik imkoniyatlar va badiiy yondashuv bilan bog'liq. XX asr filmlari ko'proq mafkuraviy maqsadlarga xizmat qilgan bo'lsa, mustaqillik davri filmlari milliy o'zlikni anglash va madaniy merosni tiklashga yo'naltirilgan. Shu sababli, mustaqillik davri filmlari o'zbek kinosining yangi bosqichini boshlab berdi.

Hozirgi kunda prezidentimiz tashabbusi bilan "Tirik tarix" turkumi filmlari ishlab chiqilmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bu borada quydagilarni ta'kidladi: "Agar tariximizni dunyoga tarannum etmoqchi bo'lsak, xalqimizning milliy g'ururini ko'tarmoqchi bo'lsak, buni birinchi navbatda kino yordamida amalga oshirishimiz kerak". Ushbu "Tirik tarix" turkum loyihasi 2024–2030-yillarga mo'ljallangani, u eng qadimgi o'tmishdan tortib, yaqin tarixgacha bo'lgan katta davrni qamrab olgan strategik dastur ekani ta'kidlandi. Loyihaga mahalliy kinoijodkorlar bilan bir qatorda Ispaniya, Germaniya, Vengriya, Rossiya, Belarus, Turkiya, Yaponiya, Xitoy, Koreya, Hindiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston va Tojikiston kabi davlatlardan hamkorlar jalb etiladi.

"Albatta, bu dastur va g'oyalarni amalga oshirish uchun ko'p moddiy imkoniyat talab etilishini, yuzlab iste'dodli mutaxassislar zarurligini ham barchamiz yaxshi bilamiz. Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz tom ma'nodagi ulkan, tarixiy bu loyihaning moliyaviy masalalarini hal qilamiz.

Nega deganda, ushbu dastur shonli o‘tmishimizni chuqur anglab, shu asosda kelajakka ishonch bilan dadil qadam qo‘yishga, yoshlarni chinakam vatanparvar insonlar qilib tarbiyalab, Uchinchi Renessansni barpo etishga katta turtki bo‘ladi”, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Hozirgi vaqtgacha 2019-2024-yillarda “Imom Iso Termiziy”, “Said va Saida”, “Qo‘qon shamoli”, “Ishoqxon Ibrat”, “Ilhaq”, “Mahmudxo‘ja Behbudiy”, “101”, “Muqimiy”, “Meros”, “Muhabbat bahori”, “O‘zbek qizi”, “Abdulla Oripov”, “Amir Bahodir Yalangto‘sh” kabi tarixiy filmlarni misol keltirishimiz mumkin.

O‘zbek tarixiy filmlarining kinooperatorlik san’ati rivojlanishi turli davrlarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayonni bir necha bosqichlarda tahlil qilish mumkin. Sovet davridan boshlab o‘zbek milliy tarixini yoritishga bag‘ishlangan filmlarda operatorlik san’ati o‘ziga xos uslublarni shakllantirdi. Bu davrda folklor, milliy urf-odatlar va tarixiy voqealarni tasvirlashda an’anaviy usullardan foydalanilgan. Ayniqsa, tasviriy san’atda milliylikni aks ettirishga urg‘u berilgan.

Mustaqillik yillaridan so‘ng tarixiy filmlarda kinooperatorlik uslublari yangi bosqichga ko‘tarildi. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, turli janrlardagi tajribalar, tarixiy filmlar estetikasi va dinamizmini oshirishga xizmat qildi. "Tirik tarix" turkumidagi filmlar operatorlik ishining dolzarb ahamiyatini ko‘rsatadi. Ushbu filmlar tarixiy voqealarni nafaqat hujjatli tasvirlar orqali, balki badiiy talqin yordamida yoritishga xizmat qiladi. Natijada, tomoshabinni o‘zbek xalqining boy tarixiy merosiga yaqinlashtiruvchi mazmunli va jozibador tasvirlar yaratilmoqda.

"Tirik tarix" turkumidagi filmlarda operatorlik san’ati milliy ruhni aks ettiruvchi mazmunli kadrlar yaratishda muhim o‘rin tutadi. Bu filmlarda yoritish (yorug‘lik) va kompozitsiyaga katta e’tibor qaratilib, tarixiy voqealar vizual ta’sirchanlik bilan yoritiladi. Masalan, sahna qurilishi va landshaft tasvirlarida milliylikni ta’kidlash orqali tomoshabinning hissiyotiga ta’sir qiluvchi kinematografik obrazlar yaratiladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar va badiiy yondashuvlarning uyg‘unligi operatorlik ishini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa o‘zbek tarixiy filmlarining xalqaro miqyosda tan olinishiga xizmat qilmoqda.

REFERENCES

1. A.I.Ismoilov, “Kinoteleoperatorlik mahorati” darslik. Toshkent-2021
2. X.Abulqosimova, “Kino san’ati asoslari”. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2009
3. O.Tojiboyeva, “Ekran san’ati va badiiy tanqid” o‘quv qo‘llanma. Toshkent 2023. “Donishmand ziyosi” nashriyoti.
4. I.Meliqo‘ziyev, “Kinoteleoperatorlik mahorati” darslik. Toshkent-2017. “Lesson Press” nashriyoti.
5. K.Xidirova “Kinoteleoperatorlik mahorati” o‘quv qo‘llanmasi. Toshkent-2017.